

## **Bir chindim bildirish**

*“Turkiston” gazetasi. 1923 yil 1 fevral.*

Ko'chada uchragan har bir yelkasi yag'irning choponini o'g'rilab olmoq odatim bo'lmag'ani uchun har kimga o'xshab bekorga kuchanabergim kelmaydir.

O'quvchi o'rtog'im, ma'luming bo'lsinkim, man har vaqt sening ko'nglingga qarab jinnilik qilabermayman: qalam degan narsa ham o'qlog'i emas. Ammo otamni partiyaga kirgizib olib uning “ha ber”idan qutulib olsam, undan keyin xursand qilish mening vazifamdir. Hozircha xayr o'rtog'im.

***Julqunboy***